

O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREA DAVLATLARI O'RTASIDAGI IQTISODIY, MADANIY, SIYOSIY ALOQALAR

Komilova Muqaddas Tohirjon qizi

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Janubiy Korea davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi, ikki davlat o'rtasida tuzilgan shartnomalar, iqtisodiy, siyosiy, diplomatik aloqalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: diplomatik aloqalar, strategik sherikchilik, iqtisodiy rivojlanish, mehnat munosabatlari, investitsion hamkorlik, hukumatlararo bitim, millatlararo totuvlik, madaniy aloqalar, Li Myon Bak, Inxa universitetini, biznes markazi, O'zDEUavto, tovar ayirboshlash, tog'-kon sanoati

Abstract: This article describes the establishment of diplomatic relations between Uzbekistan and South Korea, agreements concluded between the two countries, economic, political and diplomatic relations.

Key words: diplomatic relations, strategic partnership, economic development, labor relations, investment cooperation, intergovernmental agreement, inter-ethnic harmony, cultural relations, Lee Myung-bak, Inha University, business center, UzDEUauto, trade, mining industry.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib, ya'ni 1991-yilning oxirlarida tan olgan, diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvarda o'rnatilgan. O'tgan 30 yillik davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan kelishuvlarga erishganlar. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2006-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi.

Ikki mamlakatning siyosiy munosabatlari haqida so'z ketganda, avvalo, davlat rahbarlari o'rtasidagi samimiy do'stlikni ta'kidlash kerak. Bu do'stlik Janubiy Koreya Prezidenti Li Myon Bak Seul meri bo'lgan yillari boshlangan. 2008-yilda Li Myon Bak prezident saylovida g'alaba qozonib, davlat rahbari lavozimini egallagach, inauguratsiya marosimiga oliy faxriy mehmon sifatida O'zbekiston rahbarini taklif etdi. 2009-yilning may oyida O'zbekiston va Janubiy Koreya rahbarlari Toshkentda

uchrashdilar. Davlat rahbarlarining har bir uchrashuvi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab bordi.

Bundan tashqari ikki mamlakat o'rtasida ta'lim va madaniy sohalarda ham aloqalar o'rnatilgan. Koreya Respublikasi Maorif vazirligining 1992-yil maydan beri ishlayotgan Toshkentdagi koreys ta'lim markazida oliy o'quv yurtlari muallimlari va talabalari uchun tanlov asosida malaka oshirish yo'lga qo'yilgan. 1993-yil martda Toshkent sharqshunoslik institutida koreyashunoslik fakulteti ochilgan. O'zbekiston jahon tillari universitetida „Koreys tili markazi“, Samarqand chet tillar institutida „Koreys tili va madaniyati markazi“ ishlaydi. Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi bu markazlarni eng yangi adabiyot va video hamda audio kassetalar bilan jihozlagan.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. O'zbek madaniyat va san'at arboblari Koreya Respublikasida o'z mahoratlarini namoyish etish, O'zbekistonda koreys madaniyati haftaliklarini o'tkazish odat tusiga aylanmoqda. 1998 va 1999-yillardagi ana shunday haftalik doirasida Toshkentda koreys kitoblari va fotosuratlarini ko'rgazmasi, koreys san'at arboblari va rassomlari ko'rgazmasi uyushtirildi. Sport turlari va koreys an'anaviy o'yinlari namoyish etildi. Kinofilmlar ko'rsatildi, nihoyat Alisher Navoiy nomidagi teatrdan mashhur koreys ashula va raqs ansambllari katta tomosha ko'rsatishdi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, 1992-1996 yillarda „O'zDEUavto“ O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma korxonasini qurish, loyihalashtirish ishlari olib borildi. 1996-yilning 25-mart kuni zavodning ilk mahsuloti ishlab chiqarildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda janubiy koreyalik investorlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan 412 ta korxonalar, ushbu mamlakatdagi 81 kompaniyaning vakolatxonalar ishlaymoqda. O'zbekistonga kiritilgan investitsiyalar hajmi esa 6 milliard dollardan oshib ketdi. Koreya Respublikasi O'zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. Yurtimiz tashqi savdosining 7,8 foizi aynan Janubiy Koreyaga tegishli bo'lib, 2014-yili o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard dollardan oshdi.

O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ham hamkorlik o'rnatilgan. Hamkorlik Toshkent shahrida Inxa universiteti filialining tashkil qilinishi bilan davom ettirildi. Shu maqsadda 2014-yil 24-martda prezidentimizning „Toshkent shahrida Inxa universitetini tashkil etish to'g'risida“gi qarori, 27 martda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Toshkent shahridagi Inxa universitetining faoliyatini tashkil etish va moddiy-texnika bazasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori qabul qilindi. Bugun zamonaviy, xalqaro talablarga mos sharoitlarda o'zbekistonlik yoshlar kompyuter va dasturiy injiniring yo'nalishi bo'yicha bilim olmoqda.

2019-yilning 18-aprel kuni Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning O'zbekistonga davlat tashrifi bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif davomida O'zbekiston

Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida alohida strategik sheriklik to'g'risidagi Qo'shma deklaratsiya imzolandi, muhim kelishuvlarga erishildi va umumiy qiymati 12 milliard dollardan ortiq bo'lgan kelishuvlar imzolandi. Ular energetika, neft-gaz, kimyo, tog'-kon sanoati, mashinasozlik, elektrotexnika, to'qimachilik va yengil sanoat, transport va logistika, infratuzilma, AKT, raqamli tibbiyot kabi sohalarni qamrab oladi. Bulardan, xususan, "Angren" iqtisodiy zonasini "Inchon" erkin iqtisodiy zonasi boshqaruviga o'tkazish, ommabop dori vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish to'g'risidagi kelishuv e'tiborga molik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2022- yil 22-noyabr kuni davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatga keldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dastlab ikki mamlakat iqtisodiy va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari, yetakchi ishbilarmonlari ishtirokida o'tgan Janubiy Koreya – O'zbekiston biznes-forumida qatnashdi. 700 dan ortiq ishtirokchi qatnashgan forum ochilishida Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning qutlovi o'qib eshitirildi. Prezidentimiz o'z nutqida O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanayotgani, mamlakatimizda biznes yuritish uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilganini qayd etdi. O'zbekiston Koreya Respublikasi biznes vakillari bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi. Ushbu uchrashuvda O'zbekistonda Koreya Respublikasi biznes markazi tashkil etish taklifini ilgari surdi. Janubiy koreyalik moliya va ishbilarmon doira vakillari O'zbekistonda faol biznes yuritish uchun yaratilgan imkoniyatlarni yuqori baholab, o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyorligini ta'kidladi. Shu yerda Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimidagi bir yillik faoliyati haqida koreys tilida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev" nomli kitob taqdimoti bo'lib o'tdi. 50 ming nusxada chop etilgan kitob 8 bo'lim, 320 sahifadan iborat. Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasi mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan qariyb 170 ming odam xoki qo'yilgan Milliy yodgorlik majmuasini ziyorat qildi. Vatanparvarlar xotirasiga hurmat bajo keltirib, yodgorlik poyiga gulchambar qo'ydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston va janubiy koreya xalqlari o'rtasida azaliy do'stlik rishtalari mavjud, ularning madaniyati va mentaliteti o'xshash. Taqdir taqozosi bilan yurtimizga kelib qolgan koreyslar jamiyatimizning to'laqonli azosiga aylandi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida o'tgan davrdagi samarali hamkorlik, alohida strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar, aloqalar xalq hayoti va manfaatlariga xizmat qilishi shubhasizdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida bir qancha shartnomalar imzolangan". Uz Daily . 2014-06-18 . Olingan 2020-09-28

2. <https://www.gazeta.uz/ru/2022/01/29/uzbekistan-korea/>
3. <https://russian.korea.net/NewsFocus/Opinion/view?articleId=210431>
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Janubiy_Koreya_munosabatlari
5. Xurshidbek Samiyev. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi hamkorlik natijalari. <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-va-koreya-respublikasi-ortasidagi-hamkorliknatijalari>.
6. Obid Hakimov "The Korea Post" jurnali. O'zbekiston Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. <https://review.uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogosotrudnichestva>
7. Sanjar Said. O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari: tenglik, do'stlik, hamjihatlik.
8. Мусаев Б. Мехнат ҳуқуқи: уни ҳимоя қилиш борасида. Ўзбекистон ва Корея Республикаси ҳамкорлиги.-Тошкент: 2017. –Б. 76.